

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXI sessiyasida bir guruh deputatlar taqdirlanishdi



Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXI sessiyasida bir guruh deputatlar taqdirlanishdi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2017 yil 25 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolarini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlarini ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish haqida”gi KQ-278-III-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga asosan, Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashida “Adolatli deputat”, “Xalqparvar deputat”, “Mehnatkash deputat” hamda “Faxriy deputat” maqomlari ta‘sis etilgan. Shu munosabat bilan 2020 yil davomida samarali faoliyat olib borgan, jamoatchilik va xalq orasida munosib obro‘-e‘tibor qozongan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi deputatlarini ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirish maqsadida, Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi deputatlarini ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha komissiyasi tavsiyasi va Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining Reglament va

deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi takliflariga binoan shahar Kengashidagi bir guruh deputatlar taqdirlanishdi.